

**MUSTAQILLIK YILLARIDA BUYUK AJDODLAR VA TARIXIY
SHAXSLARGA BO'LGAN E'TIBOR**

Odiljonova Ruhshona Kozimjon qizi

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti 303-guruh talabasi)

Abdullayev Begzodbek Xusniddin o'g'li

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti o'qituvchisi)

Annotatsiya: Mazkur maqola O'zbekistonning mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridanoq buyuk ajdodlar xotirasini abadiylashtirish yo'lida olib borilgan izlanishlar, sa'yi-harakatlar namunasi.

Kalit so'zlar: Islom Karimov, Boborahim Mashrab, "Navro'z — umumxalq bayrami", Bahouddin Naqshband, Ulug'bek, Beruniy, Navoiy, Xoja Ahmad Yassaviyning, "Avesto", Najmiddin Kubro.

Abstract: This article is an example of the researches and efforts carried out to perpetuate the memory of great ancestors since the first days of independence of Uzbekistan.

Key words: Islam Karimov, Boborahim Mashrab, "Navroz is a national holiday", by Bahouddin Naqshband, Ulug'bek, Beruni, Navoi, Khoja Ahmad Yassavi, "Avesta", Najmiddin Kubro.

Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini yoritish va o'rganish masalalariga alohida e'tibor berildi. Sovet davridagi sinfiylik yondashuv va hukmron kommunistik mafkura tayziqi ostida taqiqlangan tarixiy mavzulardagi asarlar chop etilib, xalqimiz tarixini holislik, haqqoniylik asosida tiklash va chuqur, har tomonlama tadqiq qilishga kirishildi.

Ma'naviyati yuksaklikning asosiy ko'rinishlaridan biri — bu o'z tarixini bilmoq, o'tmish ajdodlarni tanimoq, hamisha yodda tutmoqdir. Shu nuqtai nazardan, istiqlolning ilk kunlarida, ya'ni 1991-yilning sentyabrida Toshkent shahri markazida Alisher Navoiy haykali va milliy bog' barpo etildi; 1992 yilda hurfikir shoirimiz Boborahim Mashrab tavalludining 350 yilligi nishonlanib, Namanganda muzey, bog' va haykal barpo etildi; buyuk mutasavvuf Bahouddin Naqshband hazratlari tavalludining 675 yilligini nishonlash haqida qaror qabul qilindi. 1993-yilda — "Navro'z — umumxalq bayrami" haqida qaror, shuningdek, Ulug'bek, Beruniy, Navoiy kabi allomalarning tavallud topgan kunlari keng nishonlandi. 1996 yil "Amir Temur yili" deb, e'lon qilindi. Bunday yukask ishlarning amalga oshirilishida, albatta, birinchi prezidentimiz xizmatlari beqiyos. Islom Karimovning milliy-ma'naviy tiklanishimiz borasida qilgan xizmatlar haqida fikr yurtganda ularning kontseptual g'oyalarni ishlab chiqish bilan bir qatorda ana shularni amalga oshirish borasida

qilayotgan katta xizmatlari haqida alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Jumladan, 1994-yildayoq Respublikamizda "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazini tuzish to'g'risida farmon chiqarganlari, ularning faoliyatini takomillashtirish haqida g'amxo'rlik ko'rsatayotganliklarini aytish joiz. Mustaqillik yillarida ma'naviy merosimiz rahnomalari nomlari tiklandi, ular tavallud topgan kunlar nishonlanmoqda, asarlari chop etildi. Chunonchi, Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi, Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi keng nishonlandi. 1998- yilda Imom al-Buxoriy hazratlarining 1225 yilligi, Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yilligi nishonlanishida bosh-qosh bo'lganliklarini ta'kidlash lozim. 1999-yilda vatanparvar siymo, xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi nishonlandi. Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdi xotirasini abadiylashtiruvchi yodgorlik majmuyi barpo etildi. Mustaqillik yillari Qur'oni Karim o'zbek tiliga tarjima qilinib, ko'p nusxada chop etildi. Imom al-Buxoriyning turli jildlik hadisalari, Xoja Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar" to'plami, ko'plab Qur'oni Karim shaxslariga oid kitoblar chop etilganligini va ulardan xalqimiz baxramand bo'layotganliginign guvohi bo'lib turibmiz.

Bundan tashqari, mustaqillik yillari Iydi Ramazon va Qurbon hayit kunlari diniy qadriyatlarimizning bayrami sifatida xalqimiz hayotidan mustahkam o'rin oldi. Har yili 3000 dan ortiq Vatandoshlarimiz muborak haj safarlarini ado etmoqdalar. Mustaqillik yillari ko'plab masjid va madrasalar ta'mirlandi.

Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzolarning nomi qayta tiklandi. Amir Temur tavalludining 660 yilligi, Mirzo Ulug'bekning esa 600 yilligi keng nishonlandi va shu munosabat bilan yurtimizda beqiyos ma'naviy-ma'rifiy ishlar amalga oshirildi. Yana shuni aytib o'tish joizki, mustaqillik tufayli milliy istiqlolimiz kurashchilari Munavvarqori, Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir va boshqalarning nomlari tiklandi, asarlari chop etildi. Ularning tavallud topgan kunlar umummilliy bayram sifatida nishonlanadi. Qatag'on yillarida millatimiz mustaqilligini ta'minlash yo'lida qurbon bo'lgan xalqimizning ana shu sevikli farzandlarining muborak nomlarini abadiylashtirish maqsadida Vatanimiz poytaxti Toshkent shahrida Shahidlar xiyoboni barpo etildi. Bu o'zlikning anglashning tarix bilan uyg'ongan millat tarjimasini holining mustaqillik ko'zgisida namoyon bo'lishining bir qarrasidir.

2001-yilda Alisher Navoiy nomi bilan yuritiluvchi viloyatda uning nomiga bog' yaratilib, shoirning haykali o'rnilishi ham ma'naviyatimiz olamida katta voqea bo'ldi. Mustaqillik yillarida tarixiy merosga munosabat tubdan o'zgardi. Sho'rolar davrida xurofot deya qoralanib, ta'qiqlangan, xalqimizning nodir durdonalari bo'lgan ko'plab asarlar tadqiq etildi va qayta nashr qilindi, shu tariqa ular xalqimizning chinakam mulkiga aylantirildi. Ta'kidlash joizki, tarixiy sanalarga ham munosabat o'zgardi. Jumladan, 1991- yil —"Alisher Navoiy yili", 1994-yil —"Mirzo Ulug'bek yili", 1996-yil —"Amir Temur yili" deb e'lon qilindi. Bahouddin Naqshband (1993), Feruz

(1994), Imom Buxoriy (1998), Ahmad Farg'oniy (1998), Jaloliddin Manguberdi (1999) 800 yillik, Ajiniyoz Qo'ziboy o'g'li (1999), Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Moturidiy (2000), Abduxoliq G'ijduvoni (2003), Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy (2004), Oybek (2005), Abdulla Qahhor (2007), Muhammadrizo Ogahiy, Hamid Olimjon (2009) va boshqa buyuk shaxslarning tavallud to'ylari keng miqyosda nishonlandi. Qadimiy va hamisha navqiron, ko'hna va boqiy shaharlarimiz Buxoro, Xiva (1997) va Termizning (2000) 2500, Qarshining (2006) 2700, Marg'ilonning (2006) 2000, Samarqandning (2007) 2750, Toshkentning (2009) 2200 yillik yubileylar o'tkazildi. —"Alpomish" dostonining (1999) 1000, —"Avesto" kitobining (2001) 2700 yilligini chinakam bayram sifatida tantana qilindi. Quvonarlisi shundaki, muqaddas dinimiz — islom diniga e'tiqod erki yana xalqimizga qaytarildi. Zero, ma'naviyatimizni ota-bobolirimizning dini bo'lmish Islom dinisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Istiqlol davrida bu borada ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Diniy ibodatga, urf-udumlarga, marosimlarga keng yo'lberilishi, masjid-madrasalarning, diniyobidalarining ta'mirlanishi, yangidan qurilishi, muqaddas kitobimiz — Qur'oni Karim tarjimasi, butun dunyoga mashhur ajdodimiz, hadisshunos olim Imom Buxoriyning saralangan 4 jildlik —Hadisllar majmuasi kabi diniy-ma'rifiy kitoblar bosilib chiqqanligi, O'zbekiston fuqarolarining har yili Haj safariga borishlari, Toshkent Islom universitetining bunyodga kelishi, dunyoga mashhur ulamolar yubileylarining o'tkazib turilishi diniy-ma'naviy qadriyatlarga yangicha munosabatlarning yaqqol natijasidir.

Bundan tashqari xalqimiz, millatimiz uchun fidoiy mehnatlarini inobatga olgan holda Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir, Ubaydulla Xo'jaev singari elimiz ardog'idagi insonlarning nomlarini abadiylashtirish uchun —Qatag'on Qurbonlari xotirasil muzeyi – O'zbekiston fan tizimidagi ilmiy-ma'riyiy muassasa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida 2001-yil 1-maydagi farmoni qabul qilindi va shuning asosida Toshkent shahrida —Shahidlar xotirasil yodgorlik majmui 2002-yil 31 avgustda barpo etildi..

Mustaqillik sharofati ila O'zbekiston ma'naviy hayoti, madaniy taraqqiyoti uchun yangi davr boshlandi. Istiqlol tufayli xalqimiz ma'naviyat zug'umlaridan ozod bo'ldi, erkin fikrga milliy, tiklanishga keng yo'l ochildi. Ma'naviy hayotdagi tub sifat o'zgarishlar xalqimiz ma'naviy salohiyatini mamlakatimizning ertangi porloq istiqboli uchun, milliy o'zligimiz va qadriyatlarimizning tiklanishi uchun va qolaversa milliy ongi va gururi, uyg'oq vatanparvar insonni tarbiyalash uchun qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lex.uz
2. .Anarina N.G. Sakralnaya telesnost yaponskoy xudojestven noyveshi// Vesh v yaponskoy kulture.M.:Vost.lit.,2003,s.185-201.

3. Grigoreva T.P. Ponimanie iskusstva v Yaponii // Grigoreva T.P. Dvijenie krasoti: Razmishleniya o yaponskoy kulture. M.: Vost.lit., 2005, s. 180-192.
4. Тешабаева, О. Н., Суфиев, Р., & ўғли Хасанов, Ж. А. (2022). Мамлакатимиз ҳудудларида инвестицион жозибадорликни ривожлантириш бўйича стратегик дастурлар. *Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar*, 2(17), 245-251.
5. Тешабаева, О. Н., & Суфиев, Р. (2022). Оценка путей и эффективности привлечения инвестиций в реальный сектор экономики. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, 1(17), 196-200